



О'ЗБЕК VA NEMIS XALQ ERTAKLARIDAGI ZONIMLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЗООНИМОВ В УЗБЕКСКИХ И
НЕМЕЦКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF ZOONYMS IN UZBEK AND GERMAN
FOLK TALES

Fayzulloyeva Yulduz Narzulloyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar metodikasi kafedrası stajyor-o'qituvchisi

Аннотация: *Ushbu maqolada zoonimlar — hayvon, qush, hasharot va boshqa tirik mavjudotlarning nomlari — xalq og'zaki ijodidagi o'rni, semantik xususiyatlari va madaniy konnotatsiyasi qiyosiy tahlil asosida yoritilgan. Asosan o'zbek va nemis xalq ertaklaridagi zoonimlar misolida hayvon obrazlarining lingvokulturologik, estetik, semantik va psixologik funksiyalari tahlil qilinadi. Zoonimlar xalq tafakkuri, madaniyati, axloqiy qadriyatlarini va diniy e'tiqodlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular orqali insoniyatning tabiat, jamiyat va o'z-o'ziga munosabati ifodalangani.*

Maqolada o'zbek xalq ertaklarida zoonimlar asosan axloqiy, didaktik ma'noga ega bo'lib, bolalar tarbiyasiga xizmat qilishi; nemis ertaklarida esa ular inson psixologiyasi, ichki kechinmalarini ifodalovchi ramzlar sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatilgan. Grimm birodarlar to'plagan nemis ertaklari orqali hayvon obrazlarining madaniy kodga aylangani, diniy-mifologik ildizlarga ega ekanligi isbotlab beriladi.

Аннотация: *В данной статье рассматриваются зоонимы — наименования животных, птиц, насекомых и других живых существ — в контексте народных сказок узбекского и немецкого народов. Анализ проводится с точки зрения их семантической, культурной и символической нагрузки. Зоонимы выступают не только как номинативные единицы, но и как важные носители национального менталитета, религиозных представлений, моральных ценностей и мировоззренческих установок народа.*

Особое внимание уделяется сравнительному анализу: если в узбекских сказках зоонимы выполняют, как правило, нравственно-воспитательную функцию, способствуя формированию у детей правильных поведенческих ориентиров, то в немецких сказках, особенно в сборнике братьев Гримм, они приобретают глубоко символическое значение, отражая внутренний мир человека, его чувства и духовные переживания.

Annotation: *This article explores zoonyms — names of animals, birds, insects, and other living beings — within the framework of Uzbek and German folk tales, highlighting their semantic, cultural, and symbolic functions. Zoonyms are analyzed not only as linguistic labels but also as cultural signifiers that reflect a nation's worldview, ethical values, religious beliefs, and historical experiences.*



Through a comparative approach, the article illustrates that in Uzbek folklore, zoonymic characters such as the fox, wolf, donkey, and rooster primarily serve a didactic purpose, conveying moral lessons and shaping the ethical awareness of young audiences. In contrast, in German folk tales, especially in those collected by the Brothers Grimm, animal characters embody psychological and emotional depth, symbolizing inner conflicts, fears, desires, and virtues.

Kalit so'zlar: zoonim, xalq ertaklari, o'zbek folklori, nemis folklori, hayvon obrazlari, lingvokulturologiya, semantika, psixolinguistika, didaktik vosita

Ключевые слова: зоонимы, народные сказки, узбекский фольклор, немецкий фольклор, образы животных, лингвокультурология, семантика, , дидактическое средство

Keywords : zoonym, folk tales, Uzbek folklore, German folklore, animal imagery, linguoculturology, semantics, psycholinguistics, didactic tool

Til – xalq tafakkuri, madaniyati va tarixining oynasidir. Unda insonning tabiat, hayvonot va jamiyat bilan bo'lgan munosabati ifodalanadi. Tildagi barcha nomlar ichida zoonimlar alohida o'rin tutadi, chunki ular inson tafakkurining eng qadimiy qatlamlaridan birini tashkil etadi.

Zoonim (yunoncha zōon – “hayvon” va onyma – “ism, nom” so'zlaridan) deganda hayvon, qush, hasharot va boshqa jonivorlarga oid nomlar tushuniladi. Tilshunoslikda zoonimlar onomastika sohasining muhim tarmog'i hisoblanadi. Ular xalqning hayot tarzi, diniy e'tiqodi, afsona va ertaklari bilan chambarchas bog'liqdir. Zoonimlar tilda nafaqat nom berish funksiyasini, balki ramziy, semantik va konnotativ ma'nolarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, o'zbek tilidagi “bo'ri” so'zi shijoat, kuch, xavf ramzi bo'lsa, nemis tilidagi “Wolf” ham shunga o'xshash semantik yukni tashiydi. Ammo ayrim hollarda hayvon obrazlarining ma'nosi milliy mentalitetga qarab farqlanadi: o'zbek xalqida “tulki” ayyorlikni bildirsa, nemis madaniyatida “Fuchs” obraziga ba'zan donolik yoki makkorlik sifatlari yuklanadi. Zoonimlar o'z tabiatiga ko'ra turli mezonlarga asosan tasnif qilinadi. Tilshunoslar ularni odatda quyidagi guruhlarga ajratadilar:

1. Biologik asosga ko'ra: yovvoyi hayvon nomlari (bo'ri, sher, ayiq, tulki / Wolf, Löwe, Bär, Fuchs); uy hayvonlari (ot, sigir, it, mushuk / Pferd, Kuh, Hund, Katze); qushlar (xo'roz, qaldirg'och, qarg'a / Hahn, Schwalbe, Krähe); hasharotlar (ari, pashsha, kapalak / Biene, Fliege, Schmetterling).

2. Funktsional ma'nosiga ko'ra: neytral zoonimlar (faqat hayvon nomini bildiradi); ramziy zoonimlar (ma'naviy yoki axloqiy ma'noga ega: tulki – ayyor, xo'roz – g'ururli); frazeologik zoonimlar (iboralarda qo'llanadi: bo'riday g'azablanmoq, itdek ishlamoq).

3. Semantik nuqtai nazardan: zoonimlar pozitiv, negativ va neytral konnotatsiyaga ega bo'lishi mumkin. Masalan, “ot” (sadoqat, kuch) – pozitiv; “ilon” (xiyonat, yovuzlik) – negativ. Demak, zoonimlar til tizimida nafaqat nominativ, balki estetik va madaniy yuk ham tashiydi. Ular xalq tafakkurining qadimiy qatlamlaridan bo'lib, tildagi ramzlar tizimini boyitadi.



Folklor, ayniqsa ertak janrida zoonimlar muhim badiiy vosita hisoblanadi. Hayvon obrazlari orqali xalq o'zining axloqiy qarashlarini, orzu-intilishlarini, ijtimoiy munosabatlarini ifoda etadi. Ertaklarda hayvonlar ko'pincha inson sifatlarini o'zida mujassam etadi: ular gapiradi, fikrlaydi, hiyla ishlatadi yoki do'stlik namoyon etadi. Masalan, o'zbek xalq ertaklarida "Tulki bilan turna", "Bo'ri va echki", "Sher va eshak" kabi syujetlarda hayvonlar insoniy xarakterlarni ifodalaydi. Nemis xalq ertaklarida esa Grimm birodarlar to'plagan "Der Wolf und die sieben Geißlein", "Die Bremer Stadtmusikanten" kabi asarlarda hayvonlar axloqiy g'oyalarni targ'ib etuvchi asosiy qahramonlardir. Zoonimlar orqali xalq nafaqat voqeani badiylashtiradi, balki ma'naviy qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Shuning uchun ular lingvokulturologiya va antropologiya tadqiqotlarida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Nemis va o'zbek madaniyatida hayvon obrazlariga berilgan baho ko'p jihatdan milliy tafakkur va tarixiy tajriba bilan belgilanadi. O'zbek xalqining chorvachilik hayoti sababli "ot", "tuya", "sigir" kabi hayvonlar ijobiy ramzlar sifatida qaraladi, sadoqat, sabr, kuch timsoli sanaladi.

Nemis xalq og'zaki ijodida esa "ayiq", "bo'ri", "qush" kabi hayvonlar ko'proq tabiat bilan uyg'unlik, jasorat va erkinlik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, "Adler" (burgut) obrazi Germaniyada kuch, or-nomus va ozodlik timsoli bo'lsa, o'zbek madaniyatida "burgut" ham shunga o'xshash semantik ma'noga ega.

Shu tariqa, zoonimlarning semantik tizimi orqali har bir xalqning milliy mentaliteti, axloqiy qadriyatlari va badiiy tafakkurini aniqlash mumkin. Bu esa qiyosiy folklor va madaniyatshunoslik tadqiqotlari uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Nemis xalq ertaklari asrlar davomida shakllangan og'zaki ijod mahsuli bo'lib, ularning asosiy manbalari xalq og'zaki rivoyatlari, mifologik tasavvurlar va qadimgi german e'tiqodlariga borib taqaladi. Ertaklarda ishlatilgan hayvon obrazlari qadimgi german xalqlarining tabiatga sig'inish, totemizm va afsonaviy ramzlar tizimi bilan chambarchas bog'liqdir.

Aka- uka Grimmlar ertaklarida hayvon obrazlari o'ziga xos simbolik ma'nolarga ega. Quyida eng ko'p uchraydigan hayvon obrazlarining ma'no va funksiyalari tahlil qilinadi: Bo'ri (der Wolf) — yovuzlik, xavf va yirtqichlik ramzi. "Der Wolf und die sieben Geißlein" ("Bo'ri va yetti echki") ertagida bo'ri hiylakor va yovuz sifatida tasvirlanadi. Ammo shu bilan birga, bo'ri kuch va erkinlik ramzi sifatida ham talqin qilinadi. Tulki (der Fuchs) — ayyorlik va donolik belgisi. "Der Fuchs und die Gänse" ("Tulki va g'ozlar") ertagida tulki o'z aql-idroki bilan voqealar rivojini belgilaydi. Qurbaqa (der Frosch) — o'zgarish va yangilanish timsoli. "Der Froschkönig" ("Qurbaqa shoh") ertagida u tashqi ko'rinishdan tashqari ichki go'zallik va sadoqat g'oyasini ifodalaydi. Eshak (der Esel) — mehnatkashlik, sabr-toqat va sadoqat timsoli. "Das Eselein" ("Kichik eshak") ertagida eshak halollik va poklik bilan bog'lanadi. Qarg'a (die Krähe) va qush (der Vogel) — ozodlik, ruhiy yuksaklik va xabar yetkazuvchi obrazlar sifatida chiqadi. Bu obrazlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, nemis ertaklarida zoonimlar insoniy fazilatlarini ramziy tarzda ifodalaydi va har biri muayyan axloqiy g'oyani targ'ib etadi.

Zoonimlar shu tariqa nemis ertaklarida insoniy qadriyatlar va axloqiy ideallarni badiiy shaklda ifodalash vositasiga aylanadi. Nemis xalq ertaklaridagi zoonimlar xalqning



mentaliteti, diniy-mifologik qarashlari va axloqiy qadriyatlarini yoritishda beqiyos rol o'ynaydi. Grimm birodarlar to'plagan ertaklarda hayvonlar obrazlari orqali inson xarakterining turli jihatlari ifoda etilgan: ayyorlik, sadoqat, halollik, jasorat va donolik. Shu bois nemis ertaklaridagi zoonimlarni tahlil qilish u xalqning madaniy kodlarini anglash va xalq ruhiyatini o'rganish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

1. O'xshashliklar

Har ikkala xalq ertaklarida eng ko'p uchraydigan zoonimlar — bo'ri, tulki, ayiq, quyon, eshak, xo'roz, sigir, ot kabi hayvonlardir. Bu zoonimlar xalq og'zaki ijodida insoniy fazilatlar yoki nuqsonlarning timsoli sifatida ishlatiladi. Masalan: Tulki (Fuchs) — har ikki xalq ertaklarida ayyorlik, hiyla va makr timsoli sifatida gavdalanadi. O'zbek ertaklarida: “Tulki bilan turna”, “Bo'ri va tulki” kabi ertaklarda tulki hiyla bilan raqiblarini aldab g'alaba qozonadi. Nemis ertaklarida: “Der Fuchs und die Gänse” (Tulki va g'ozlar), “Reineke Fuchs” kabi asarlarda ham tulki hiylakor obrazda ko'rsatiladi. Bo'ri (Wolf) — har ikki xalqda yovuzlik, tajovuz va ochko'zlik ramzi hisoblanadi. O'zbek ertaklarida u “Bo'ri bilan echki bolalari”da ayyor va yovuz, lekin oxir-oqibat jazoga loyiq obraz sifatida namoyon bo'ladi. Nemis ertaklarida esa “Der Wolf und die sieben Geißlein” (Bo'ri va yetti echkichi) ertagida xuddi shunday yovuz kuchning ifodasi sifatida ishlatiladi. Bu o'xshashliklar shuni ko'rsatadiki, har ikki xalq hayvonlar orqali inson xulqini tahlil qilish an'anasiga ega. Hayvonlar orqali axloqiy dars berish, bolalarni yaxshilikka, halollikka, mehr-shafqatga o'rgatish maqsadi kuzatiladi.

2. Farqlar

Biroq zoonimlarning badiiy talqini har xil. O'zbek ertaklarida hayvonlar ko'pincha xalq orasidagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi obrazlardir. Masalan, kambag'al va boy, kuchli va zaif o'rtasidagi kurash hayvonlar orqali ifodalanadi. Nemis ertaklarida esa hayvonlar mifologik yoki psixologik ma'noga ega bo'lib, ular insonning ichki dunyosini, his-tuyg'ularini ramziy tarzda ifodalaydi. Masalan: O'zbek ertaklarida eshak ko'pincha mehnatkash, ammo e'tibordan chetda qolgan hayvon sifatida tasvirlanadi (“Eshak va bo'ri”). Nemis ertaklarida esa u sadoqat va bardoshlilik ramzi sifatida ko'rinadi (“Die Bremer Stadtmusikanten” – Bremen musiqachilari ertagida). Shuningdek, cho'chqa (Schwein) obrazi o'zbek ertaklarida umuman uchramaydi, chunki bu hayvon islom madaniyatida man etilgan. Ammo nemis ertaklarida cho'chqa baxt va farovonlik timsoli sifatida ijobiy konnotatsiyada ishlatiladi. Bu farqlar madaniy qadriyatlar, diniy qarashlar va xalq mentaliteti bilan izohlanadi. Demak, zoonimlar har ikkala xalq ertaklarida axloqiy, didaktik va estetik vazifani bajaradi. Ammo ularning semantik maydoni, ya'ni ma'no doirasi, madaniy kontekstga qarab turlicha talqin qilinadi. O'zbek ertaklarida hayvonlar orqali tarbiyaviy g'oyalar ilgari surilsa, nemis ertaklarida ular shaxsiy his-tuyg'ular va ichki ziddiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

O'zbek ertaklarida hayvon obrazlari bolalar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Har bir zoonim axloqiy g'oyani ifodalaydi: Tulki – hiylakorlik va aldov timsoli, lekin u har doim fosh bo'ladi. Bo'ri – yovuzlik, adolatsizlik, zo'ravonlik ramzi. Eshak – mehnatkash, ammo qadri bilinmaydigan hayvon sifatida ifodalanadi. Xo'roz – uyg'onish, hushyorlik va ogohlantirish ramzi. Nemis ertaklarida esa hayvonlar ko'proq insoniy kechinmalar, ruhiy holatlarni ifodalaydi: Qarg'a (Krähe) – donolik yoki sir saqlovchi obraz. Quyon (Hase) –



qo'rqoqlik yoki tezkorlik ramzi. Ayig' (Bär) – kuch, lekin ba'zida beparvolik yoki beg'uborlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Shunday qilib, o'zbek ertaklarida zoonimlar axloqiy me'yorlarni o'rgatadi, nemis ertaklarida esa ular psixologik tahlil va insoniy his-tuyg'ularni ifodalaydi.

Zoonimlarning estetik ma'nosi ham madaniyatga bog'liq. O'zbek xalq og'zaki ijodida hayvonlar orqali xalqona hazil, topqirlik va aql-zakovat aks ettirilsa, nemis ertaklarida ularning tasviri fantastik va dramatik xarakterga ega. Masalan: "Tulki bilan turna" ertagida o'zbek xalqining mehmondo'stlik, adolat va o'zaro hurmat haqidagi qarashlari ifodalanadi. "Der Wolf und die sieben Geißlein" ertagida esa dramatik voqealar, xavf va qo'rquv orqali bolalarga ehtiyotkorlik va onalikka hurmat g'oyasi singdiriladi. Estetik jihatdan, o'zbek ertaklari yumor va xalqona iboralarga boy, nemis ertaklari esa tasviriy ifoda va emotsional kuch bilan ajralib turadi. Madaniy konnotatsiyalarni solishtirish shuni ko'rsatadiki, nemis va o'zbek ertaklarida zoonimlar turli ma'naviy va madaniy qadriyatlarning timsoli bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalq ertaklarida ular asosan didaktik va axloqiy maqsadga ega. Nemis ertaklarida esa ular estetik va psixologik obraz yaratish vositasidir. Shunday qilib, zoonimlar ikki xalqning madaniyatidagi ruhiy, diniy va ijtimoiy tafovutlarni ifodalovchi muhim til birliklari sifatida namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodining eng muhim jihatlaridan biri shundaki, u xalq ruhiyatining, dunyoqarashining va milliy xarakterining badiiy ifodasidir. Shu nuqtai nazardan, ertaklarda uchraydigan zoonimlar faqat badiiy obraz sifatida emas, balki xalq psixologiyasi, qadriyatlari, orzu-umidlari va hayot falsafasini ifodalovchi timsollar sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гримм Якоб. Германская мифология. Т. III / Пер., коммент. Д.С. Колчигина. Под ред. Ф.Б. Успенского. – 2-е изд., доп. – М.: Издательский Дом ЯСК, 2019. – 792 с. – (Studiophilologica) ISBN 978-5-907117-32-7 (т. III).
2. Асотирлар ва ривоятлар. 1-китоб. Тўплаб, нашрга тайёрловчилар: М.Муродов, М. Шайхова. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. – Б.30.
3. Раҳмонова М. Шоирлар ҳақидаги афсоналар // Ўзбек афсоналари бадиияти. – Т.: Фан, 2009. – Б.80-81.
4. Axmedova, N. A. (2016). Zoonimlarning leksik-semantik xususiyatlari (o'zbek tilida). Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Xolmatova, M. (2020). O'zbek xalq ertaklarida hayvon obrazlarining badiiy talqini. – O'zbek tili va adabiyoti jurnali, №3, 45–50-betlar.
6. To'xtaeva, D. (2021). O'zbek tilida zoonimik birliklarning semantik-kognitiv xususiyatlari. – Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent.
7. Grimm, J. & Grimm, W. (1857/2003). Grimm's Fairy Tales (Kinder- und Hausmärchen). Trans. by Margaret Hunt. New York: Pantheon.
8. Köhler, L. (2001). Animal Symbols in German Folktales: Cultural and Psychological Dimensions. – Folklore Studies Journal, Vol. 45, pp. 132–147.



9. Hahn, H. (2010). Tiere als Symbole: Eine kulturgeschichtliche Studie. München: C. H. Beck.